# Yodgorlik majmuasiga tashrif

Qalb xotirjamligi, dil pokligi, ruh osoyishtaligi ziyorat va ilm ham ibodat bilan. Donishmandlarning bu oʻgitida ulugʻ haqiqat bor. Oʻtganlar ruhini shod etish, ilm-u amallarini yod etishning hikmati ham katta. Qalbga jo boʻlgan qadamjolarni ziyorat qilish mas’uliyat va majburiyatni his etishga imkon tugʻdiradi. 2018 yil 7 dekabr kuni “Suv xoʻjaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti “Suv xoʻjaligida ekologiya xavfsizligi” ta’lim yoʻnalishi 106-guruh talabalari guruh rahbari hamrohligida Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida talabalar “Oq saroy” qarorgohida tashkil etilgan yodgorlik majmuasi, muzeydagi eksponatlar bilan tanishishdi.

**“SXTE va B” fakulteti dekani oʻrinbosari J.Turdiyev axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**